

## O'zbekiston Respublikasida Iste'mol narxlari indeksi (INI)

2025-yil noyabr oyi

### Ma'lumotlar jadvaliga havolalar:

[MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha iste'mol narxlari indeksi](#)

[O'zbekiston Respublikasi bo'yicha barcha tovar va xizmatlar narxlari indeksi, o'tgan oyga nisbatan](#)

- I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI
- II. Hududlar kesimida yig'ma INI
- III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI
- IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi
- V. Uslubiy ma'lumotlar
- VI. Foydali havolalar

### I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI


2025-yil noyabr oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi **100,7 %**, 2024-yilning dekabriga nisbatan – **106,4 %**, yillik nisbatda **107,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024 yil noyabr oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi **100,9 %**, 2023 yilning dekabriga nisbatan **108,7 %**, yillik nisbatda **110,0 %** ni tashkil etgan.

Yig'ma INI o'rtacha oylik o'sish sur'ati 2025-yilning yanvar–noyabrda **0,6 %** (2024-yilning yanvar–noyabrda **0,8 %**)ga teng bo'ldi.

Meva va sabzavot mahsulotlari narxlarining o'zgarishini hisobga olmaganda, oylik INI ko'rsatkichi **100,3 %** (2024-yil noyabr oyida **100,6 %**), 2025-yil yanvar–noyabr oylari uchun – **107,5 %** (2024-yil yanvar–noyabr oylarida **111,1 %**), yillik nisbatda **108,3 %** (2024-yil noyabr oyida **112,0 %**)ni tashkil etdi.

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati % da



Quyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha joriy yilning noyabr oyida asosiy tovarlar va xizmatlar narxlarining o'zgarishlari keltirilgan:

### Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo'limi

Oy davomida asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan tuxum – **2,4 %** (2024-yilning noyabriga nisbatan: **-1,3 %**<sup>1</sup>)ga, sut – o'rtacha **0,8 % (+7,0 %)**ga, o'simlik yog'lari – o'rtacha **0,5 % (+23,3 %)**ga, un – o'rtacha **0,5 % (-5,9 %)**ga, qo'y go'shti – **0,8 % (+26,8 %)**ga, suyaktsiz mol

<sup>1</sup> Bu yerda va keyingi o'rinlarda, agar boshqa izohlar keltirilmagan bo'lsa, qavs ichida yillik ko'rsatkichlar keltirilgan, ya'ni o'tgan yilning shu oyi bilan solishtirilgan (2025-yil noyabri 2024-yil noyabriga nisbatan). Musbat qiymat o'sishni, "minus" belgilari esa narxlarning pasayishini bildiradi).

go'shti – **0,5 % (+23,5 %)**ga, suyakli mol go'shtining narxlari o'rtacha **0,3 % (+24,2 %)**ga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: shu yilning noyabr oyida import mol go'shti narxlari barqaror bo'lishiga qaramay, mahalliy go'sht narxi hisobiga respublikada 1 kilogramm mol go'shtining o'rtacha narxi 1 000–1 500 so'mga oshdi.*

Oy davomida asosan guruch – **4,5 % (-17,0 %)**ga, shakar – o'rtacha **2,7 % (-4,6 %)**ga, parranda go'shti (tovuq boldiridan tashqari) – **1,2 % (+4,2 %)**ga, tovuq boldiri va son qismlari narxining **1,2 % (+4,5 %)**ga pasayishi kuzatildi.

Asosiy meva–sabzavot mahsulotlaridan bodring – **96,0 % (+13,7 %)**ga, pomidor **82,2 % (+0,4 %)**ga, bulg'or qalampiri – **61,2 % (+1,4 %)**ga, baqlajon **51,7 % (-11,5 %)**ga narxlari sezilarli oshdi. Sabzi – **26,1 % (+14,5 %)**ga, limon – **3,1 % (+65,0 %)**ga, piyoz – **2,5 % (+5,2 %)**, karam narxlarining **1,7 % (+13,8 %)**ga sezilarli pasayishi kuzatildi.

#### **Kiyimlar va poyabzallar bo'limi**

Oy davomida narxlarning asosiy o'sishi mavsumiy kiyim–kechak va poyabzallar uchun qayd etildi. Respublika bo'yicha palto va kurtkalar narxlari o'rtacha **0,5–2,4 %**, etiklar narxlari **0,4–1,1 %** oralig'ida ko'tarildi.

#### **Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari bo'limi**

2025-yil noyabr oyidan boshlab, ayrim hududlarda issiq suv va issiqlik ta'minoti tariflari oshdi. Respublika bo'yicha oy davomida isitish xizmatlari o'rtacha **7,3 %** ga, issiq suv ta'minoti esa **9,0 %** ga oshdi. 2025-yil boshidan ushbu xizmatlar narxlari mos ravishda **11,5 %** va **11,9 %** ga oshdi. Turar joylarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun materiallar narxlari oy davomida **0,8 % (+5,1 %)**ga oshdi.

#### **Sog'liqni saqlash xizmatlari bo'limi**

Oy davomida dori vositalari narxi **0,2 % (+5,3 %)**ga, statsionar va ambulator davolash xizmatlari **0,3 %** (mos ravishda **+7,5 %** va **+6,7 %**)ga va sog'liqni saqlashning boshqa xizmatlari **0,3 % (+10,2 %)**ga oshdi.

#### **Transport bo'limi**

Benzin uchun INI oy davomida **101,7 % (108,5 %)**ni, shu yil boshiga nisbatan esa **109,2 %** ni tashkil etdi. Joriy yilning noyabr oyida AI–80 marka benzining narxi bir litri uchun 8 500 dan 9 800 so'mgacha, AI–91 va AI–92 uchun 10 500 dan 13 300 so'mgacha, AI–95 va AI–98 uchun 12 000 dan 18 000 so'mgacha oralig'ida, hamda kuzatuvdagi eng qimmat markadagi AI–100 benzining narxi bir litri uchun 20 500 so'mni tashkil qildi.

*Taqqoslash uchun: noyabr oyida benzin narxlarini ro'yxatdan o'tkazish 632 ta obyektlarda amalga oshirildi va qayd etilgan narxlarning umumiy soni 1471 tani tashkil etdi.*

*Ulardan:*

–AI–80 markasi bo'yicha umumiy 445 ta narx yig'ildi, shundan, 384 tasi onlayn kassa ma'lumotlaridan olindi. Respublika bo'yicha ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi **1,0 %** ga oshdi;

– AI–91 markasi bo'yicha umumiy 92 ta narx yig'ildi, shundan, 84 tasi onlayn kassa ma'lumotlaridan olindi. Ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi **0,4 %** ga oshdi;

– AI–92 markasi bo'yicha umumiy 587 ta narx yig'ildi, shundan, 529 tasi onlayn kassa ma'lumotlaridan olindi. Ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi **0,6 %** ga oshdi;

– AI–95 markasi bo'yicha umumiy 297 ta narx yig'ildi, shundan, 275 tasi onlayn kassa ma'lumotlaridan olindi. O'rtacha narxi **0,8 %** ga oshdi;

–AI–98 markasi bo'yicha umumiy 25 ta narx onlayn kassa ma'lumotlaridan olindi, ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi **1,0 %** ga oshdi;

–AI–100 markasi bo'yicha umumiy 25 ta narx onlayn kassa ma'lumotlaridan olindi, ushbu



markadagi benzinning o'rtacha narxi 0,6 % ga oshdi.

O'rtacha narxlarni aniqlash va benzin uchun INI hisoblashda benzin markasi bo'yicha savdosi, hududlar bo'yicha turli markalar narxlarining o'zgarishi, shuningdek, barcha hududlar aholisi tomonidan iste'mol xarajatlarida benzining sarflanadigan umumiy xarajatlardagi ulushi hisobga olindi. Umuman olganda, respublikada AI-92 markadagi benzin sotuvi ulushi yuqori bo'ldi, bu barcha o'rganilgan nuqtalardagi sotilgan benzinning yarmidan ko'pini (57,0 %) tashkil etdi.

Propan uchun oylik INI ko'rsatkichi **7,4 % (-20,8 %)**ni va yuqori narx chegarasi 7 600 so'mni tashkil etdi. Metan narxi oy davomida biroz o'zgardi: faqatgina **0,2 % (+30,2 %)**ga tushdi.

2025-yil noyabr oyidan boshlab, respublikaning ikki viloyatida avtomobil to'xtash joylari xizmatlari to'lovi oshgani qayd etildi. Respublikada ushbu xizmat turi uchun o'rtacha narx darajasi **2,8 % (+16,2 %)**ga oshdi.

2025-yilning noyabr oyida transport xizmatlari bo'yicha ichki va xalqaro yo'nalishlardagi aviaqatnovlar narxi **1,1 %** ga arzonlashdi (2024-yil noyabriga nisbatan mos ravishda **+54,1 %** va **+4,4 %**). Oy davomida shaharlararo poyezdlar uchun tariflar **0,2 % (+7,3 %)** arzonlashdi. Kuryerlik xizmatlari va posilkalarni eltib berish bo'yicha xizmatlar joriy yilning noyabr oyida **1,3 % (+18,3 %)**ga, tayyor ovqatlarni yetkazib berish xizmatlari esa **0,5 % (+6,4 %)**ga qimmatlashdi.

#### **Ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'limi**

Repetitorlik xizmatlari oy davomida o'rtacha **0,5 % (+6,9 %)**ga, chet tillari kurslarida o'qish esa **0,6 % (+7,8 %)**ga oshdi. Maktabgacha va oliy ta'lim xizmati narxlari o'tgan oyga nisbatan o'zgarishsiz qoldi.

#### **Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari bo'limi**

Oy davomida umumiy ovqatlanish xizmatlari narxlari **0,4–0,7 %**ga oshdi, mehmonxona xizmatlari narxlari barqarorligicha qoldi.

#### **Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar bo'limi**

Joriy yilning noyabr oyida ushbu bo'limdagi xizmatlardan faqatgina pul o'tkazmalari uchun xaq to'lash **1,6 % (-6,4 %)**ga tushdi.

#### **Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar bo'limi**

Bo'limdagi tovarlar va xizmatlar uchun qisqa muddatli INI diapazoni **99,5 %** (soqol olish uchun ko'pik, krem, gel, soch uchun bo'yoqlar)dan **100,8 %** (hammom va dushxonalar xizmatlari)gachani tashkil etdi.

Boshqa bo'limlarda tovar va xizmat narxlari o'zgarishi ta'siri yuqori bo'lmadi yoki yig'ma ko'rsatkichga sezilarli darajada ta'sir qilmadi.

Umuman, bo'limlar kesimida qisqa muddatli INI diapazoni **99,4 %** ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar")dan **101,0 %** ("Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar") oralig'ida kuzatildi. O'tgan yilning noyabr oyiga nisbatan qisqa muddatli INI ko'rsatkichi "Axborot va aloqa" bo'limidan tashqari barcha bo'limlarda past ko'rsatkichni qayd etgan.

2024-yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **116,8 %** ("Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari"), quyi chegarasi – **98,8 %** ga ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar") yetdi.

Yillik nisbatdagi INI chegaralari 2025-yilning noyabr oyida **99,0 %** ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar")dan – **117,0 %** ("Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari")gachani tashkil etdi.



**2025-yilning noyabr oyi MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha INI, % da**

Bo'lim nomi	2025-yil oktyabriga nisbatan	2024-yil dekabriga nisbatan	2024-yil noyabriga nisbatan
I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	101,0	103,8	105,7
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,5	105,8	106,4
III. Kiyimlar va poyabzallar	100,7	102,6	103,3
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,6	116,8	117,0
V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,2	102,2	102,8
VI. Sog'liqni saqlash	100,3	105,4	106,1
VII. Transport	100,4	111,2	112,1
VIII. Axborot va aloqa	100,2	106,1	106,2
IX. Dam olish, sport va madaniyat	100,2	105,5	106,1
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,2	104,9	105,3
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	100,5	108,2	108,9
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	99,4	98,8	99,0
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	100,2	107,9	109,0

**II. Hududlar kesimida yig'ma INI**

Hududlar kesimida oylik INI ko'rsatkichi deyarli farq qilmadi, ammo yillik INI darajalari ayrim hududlarda o'rtacha respublika ko'rsatkichidan sezilarli farq kuzatildi.

**2025-yilning noyabr oyi hududlar bo'yicha INI, % da**

Hududlar	2025-yilning oktyabriga nisbatan	2024-yilning dekabriga nisbatan	2024-yilning noyabriga nisbatan
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100,7	106,9	108,1
viloyatlar:			
Andijon	100,6	106,2	107,4
Buxoro	100,6	106,6	107,5
Jizzax	100,7	105,7	106,8
Qashqadaryo	100,6	106,1	107,4
Navoiy	100,6	106,2	107,3
Namangan	100,6	106,2	107,1
Samarqand	100,6	106,3	107,3
Surxondaryo	100,6	106,8	107,8
Sirdaryo	100,6	106,6	107,8
Toshkent	100,6	106,3	107,3
Farg'ona	100,6	106,8	108,0
Xorazm	100,6	106,4	107,5
Toshkent sh.	101,0	106,1	107,3




#### IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi

2025-yilning noyabr oyidagi qisqa muddatli yig'ma ko'rsatkichga “Oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar” yuqori ta'sir ko'rsatib, INI ko'rsatkichini **0,43 f.d. ga** (umumiy o'sishning **65,2 % i**) oshirdi. “Kiyimlar va poyabzallar”, “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari” bo'limlaridagi narx o'zgarishlari oylik yig'ma ko'rsatkichni jami hisobda **0,14 f.d. ga** oshirdi. MIIT – 2018 qolgan bo'limlarda narxlarning oshishi yig'ma ko'rsatkichni yana **0,09 f.d. ga** oshirdi.

#### MIIT – 2018 bo'limlarining 2025-yil noyabr oyida yig'ma INI o'zgarishiga ta'siri, f.d.


o'tgan oyga nisbatan



**Jami ta'siri**

**+0,66 f.d.**

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



**Jami ta'siri**

**+6,35 f.d.**

2025-yilning yanvar-noyabr oylari uchun INI o'sishiga eng katta ta'sir bu “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari”, “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar”, “Transport”, “Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar” va “Sog'liqni saqlash” bo'limlaridagi narxlar va tariflarning o'zgarishida bo'ldi (**+5,37 f.d.**, yoki umumiy o'sishning **84,6 % i**).



## V. Uslubiy ma'lumotlar

Narxlarni kuzatish va INIning hisoblash uchun tovarlar va xizmatlarning iste'mol to'plami respublikaning barcha hududlari uchun yagona bo'lgan, aholi tomonidan ko'proq iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar guruhlarining representativ tanlanmasini namoyon etadi. U 510 ta pozitsiyani, jumladan, 170 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, 250 turdagi noziq-ovqat mahsulotlar va 90 turdagi xizmatlarni qamrab oladi. Yangi tovar va xizmatlarni iste'mol savatiga kiritish mezonini – aholi umumiy iste'mol xarajatlarida ularning ulushi kamida 0,1 % bo'lishi hisoblanadi.

INI hisob-kitoblari salmoq vaznlarini shakllantirishga xizmat qiladigan aholi xarajatlarining tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar (uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlari) va iste'mol narxlari o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik holatini aks ettirishini va iste'mol bozorining tovarlar va xizmatlar bilan to'yinganlik darajasini hisobga olgan holda tanlab olingan Nukus shahri, Toshkent shahri, viloyatlar markazlari va tanlanma asosda shaharlar va tumanlar markazlaridan to'planadi.

Tovarlar va xizmatlar narxlari va tariflari kuzatuv turg'un savdo va xizmat ko'rsatish sohasi shahobchalari va ko'chma savdo (palatka, rastalar v.b.) obyektlarida tanlanma asosida o'tkaziladi. Hisob-kitoblarda muqobil manbalardan olingan ma'lumotlar (soliq qo'mitasi ma'lumotlari va boshqa ma'muriy ma'lumotlar) ham qo'llaniladi.

Kuzatuvda 195 mingga yaqin narx kotirovkalari qamrab olingan.

Ma'lumotlarni to'plash har oyning 10-20-sanalari oralig'ida amalga oshiriladi.

INI respublika aholisining joriy iste'mol tuzilmasini hisobga olmaganligi sababli yashash qiymati emas, balki faqatgina narx o'zgarishlari ko'rsatkichi hisoblanadi.

Xususiy (shaxsiy) inflyatsiya – bu alohida uy xo'jaligining iste'mol savatidagi tovar va xizmatlar narxlari umumiy darajasining o'sishi. Xususiy inflyatsiyani tahlil qilishning zaruriyati shundan iboratki, shaxsiy iste'mol savati statistika organlari tomonidan foydalaniladigan o'rtachalashtirilgan iste'mol savatidan farq qilishi mumkin.

## VI. Foydali havolalar

[Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari \(tariflari\) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha metama'lumotlar](#)

[O'zbekiston Respublikasi Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi \(O'R MIIT – 2018\)](#)

[Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: konsepsiya va uslubiyat \(2020\)](#)

Chop etish uchun mas'ul:  
Narxlar statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63  
Kontaktlar: [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)  
Tel: +99871 203-80-00 (1100, 1101)

